

JAHON XO'JALIGI RIVOJLANISHIDA TRANSPORT VA YANGI TRANSPORT YO'LLARINING AHAMIYATI.

Savriyeva Shahinabonu Akmal qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari

Yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Transport vositalarining takomillashuvi jahon xo'jaligi va mamlakatlar aholisining turmush tarzida katta ahamiyatga egadir. Kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida transport vositalaridan samarali foydalanishga uzluksiz harakat qilib kelingan. An'anaviy transport vositalari bo'lgan hayvonlar va aravalar asrlar davomida jamiyat taraqqiyoti bosqichlarida turli darajada mukammallashtirib borilgan.*

Kalit So'zlar: *"xalq avtomobili", magnit relsli poezd, tezyurar poezd, okean layneri.*

Yuk tashuvchi otlarning yangi zotlari yetishtirilgan, yo'lovchi tashuvchi aravalar qulayligi va yuk tashuvchi aravalar mustahkamligiga doimiy e'tibor qaratib kelingan. Dengiz transportidagi katta yutuqlar Yevropada tezsuzar va chidamli karavella kemalarining qurilishi bilan erishildi. Aynan shunday kemalarda X. Kolumb Amerika qit'asiga yetib bordi, Vasko da Gama Hindistonga dengiz yo'lini ochdi va Fernan Magellan yer aylanasi bo'ylab birinchi sayohatni amalga oshirdi. Ushbu kemalar yevropaliklarga Amerika, Osiyo va Afrika qit'alarida o'z hukmronliklarini o'rnatishga imkoniyat berdi va aytish mumkinki, jamiyat taraqqiyotini yangicha yo'nalishga solib yubordi. Inson hamisha transport vositalariga tezkorlik, chidamlilik va qulaylik talablarni qo'yib keldi. Bu talablarni amalga oshirish ham o'z qo'lida edi. Binobarin, doimiy izlanish tabiiy vositalar bo'lgan hayvonlarning jismoniy imkoniyatlari, shamol kabilardan tashqari qo'shimcha imkoniyatlarga erishishga olib keldi. YU. G. Saushkinning ta'biri bilan aytganda "insoniyat tabiatda mavjud yangi energetika bazalaridan foydalanishni o'rgana boshladi". Yuqorida ta'kidlanganidek, bug' mashinasining ixtiro qilinishi va undan foydalanish ishlab chiqarishda yangi energetika bazasini yaratdi va bundan keyingi davrlarda ushbu energetika bazasining qudratliroq variantlarini izlab topishga yo'l ochildi. XIX –XX asrlar kishilik jamiyatining ayni energiya manbalarini kashf etishi va ulardan foydalanishni o'rganib borish davridir. Xo'jalik tarmoqlarining birinchi navbatda, mashinasozlikning rivojlanishi yangi turdagi transport vositalaridan foydalanish, ularni takomillashtirish yo'llarini ko'rsatdi. Ayniqsa FTI, transport yo'llari, vositalari va unga bog'liq ishlab chiqarishning takomillashuviga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bu esa o'z navbatida transport

xarajatlarining qisqarishi, aholi harakatchanligi, yuk tashish miqyosi va masofasining keskin oshishi, ishlab chiqarishni hududiy joylashtirishning transport omilining kuchayishiga sabab bo'ldi.

Endilikda inson transport vositalariga qo'ygan talablariga deyarli to'liq erishdi deb hisoblash mumkin, lekin bu talablar hali o'z kuchida turibdi va bu yangi imkoniyatlarga ega transport vositalarini ishlab chiqarishga sabab bo'lmoqda.

Tezlik, qulaylik va sifat – bu talablar o'z kuchida turibdi. Barcha transport sohalarida ushbu talablarni qondirish uchun harakat qilinmoqda. Buni tezyurar, qulay, ulkan va mitti, eng yangi texnologik imkoniyatlar bilan jihozlangan avtomobillar, kemalar va poezdlar misolida ko'rishimiz mumkin. Zamonaviy transport vositalaridan eng ko'p turdagi ko'rinish va vazifalarga ega bo'lgan turi avtomobillardir. Avtomobillar yuk va yo'lovchi tashishdan tashqari, kishilarning shaxsiy mulki, sport turlari vositalari va hokazolardir. Jamiyatning barcha jabhalarida avtomobillar kishilarga doimiy zarur buyumlar qatoriga kirgan. Shuning uchun ham, avtomobillar shakli, ko'rinishi, hajmi, kuchi, bajaradigan vazifalariga ko'ra imkoniyatlari turli – tumandir. Lekin barcha tipdagi avtomobillarga albatta yuqorida ta'kidlangan talablar qo'yiladi. Ayni vaqtda sport avtomobillarining tezligi soatiga 300 km dan oshadi. Bu tezlik kundalik foydalanish uchun ishlab chiqariladigan avtomobillarning ham maksimal tezligi darajasida bo'lib qolmoqda. Binobarin, sport avtomobillarining tezkorligi yanada oshirilishi tabiiy holdir. Yo'lovchi va yuk tashish xizmatidagi avtomobillar minglab kilometr masofalarni bosib o'tmoqda. Shaxsiy avtomobillarning aqlli texnologiyalar bilan ta'minlanishi qulaylikni yanada oshirdi. Shu bilan birga avtomobillar boshqa transport vositalaridan farqli ravishda ommabop bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi. Shunga ko'ra aholining kam ta'minlangan qatlamlari ham sotib olishi mumkin bo'lgan arzonlashtirilgan avtomobillar ishlab chiqarish ustida ish olib borilmoqda. XXI asrning birinchi o'n yilligida "xalq avtomobili" yaratish ustida turli loyihalar tuzildi. Bunday avtomobil birinchi navbatda arzon bo'lishi lozim edi. Hindistonda yaratilgan shunday avtomobillar 2000 dollar turadi. Bu avtomobilning ko'p qismlari keramika va plastikdan yasalgan, xavfsizlik darajasi past bo'lgani uchun ommalashmadi. Jahon moliyaviy va iqtisodiy krizisi tufayli bunday loyihalar to'xtab qoldi. Ayni vaqtda kishilar o'zlari uchun tanish bo'lgan an'anaviy rusumdagi avtomobillarni afzal ko'rmoqdalar. Zamonaviy qulayliklarga avtomobillar ishlab chiqarishda Yaponiya, Germaniya, AQSh, Buyuk Britaniya, Italiya, Frantsiya va Shvetsiya mamlakatlari katta muvaffaqiyatlarga erishganlar. O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan avtomobillar ham zamonaviy talabalarga yuqori darajada javob beradi.

Temir yo'l transportida yangicha turdagi texnologiyalarga ega tezyurar poezdlar ishlab chiqarilmoqda. Bunday poezdlar soatiga 500 km gacha harakatlanadilar. Yaponiyada ishlab chiqilgan magnit relsli poezd maksimal tezligi 581 km soatni tashkil etadi. Poezdlarning tezligi yirik shaharlar o'rtasida aloqani kuchaytiradi va

ko'p miqdordagi yo'lovchi tashishni qulay yo'lga soladi. Odatdagi tezyurar poezdlar soatiga 250-300 km yo'l bosadi. O'zbekistonda Toshkent-Samarqand yo'nalishida MDH hududida yagona tezyurar "Talgo" rusumidagi poezd harakatlanmoqda.

Tezyurar poezdlar faqat yo'lovchi tashishga mo'ljallangan. Poezdlarda yuk tashish asosan qit'a ichida, mamlakatlararo amalga oshiriladi.

Xalqaro yuklarni tashishda dengiz transportidan keng foydalaniladi. Dengizda tashiladigan turli yuklar ixtisoslashgan kemalarda uzoq masofalarga tashiladi. Dengiz transporti yo'lovchi tashishdagi ahamiyatini yo'qotgan bo'lsada okean va dengizlarda sayohat qiluvchilar uchun mo'ljallangan, barcha qulayliklarga ega

kemalardan rekreatsion maqsadlarda keng foydalaniladi. Ayni vaqtda o'z boriga 5000 kishigacha qabul qila oladigan okean laynerlari mavjud. Bunday kemalarni suzuvchi shahar deb atash mumkin. Unda kishilarning dam olishi va sayr qilishi uchun barcha qulayliklar mavjud.

Qit'alar o'rtasidagi masofani deyarli yo'qotishga erishgan transport vositasi shubhasiz samolyotlardir. Havo transporti XX asrning boshida shakllangan va shu bir asr davomida ulkan o'zgarishlarga erishdi. Muhim yuklar va yo'lovchilar minglab kilometrlar masofaga bir necha soatda yetkazib boriladi. Bu borada tovushdan tez uchuvchi samolyotlar katta muvaffaqiyatga erishganlar. Fransiya va Buyuk Britaniya hamkorligida ishlab chiqilgan "Konkord" rusumli tovushdan tez uchuvchi samolyot Atlantika okeani ustidan 3 soatda uchib o'tadi. Bunday samolyotlarning uchishi juda qimmatligi uchun ekspluatatsiyadan chiqarilgan. Ayni vaqtda havo transportida ko'proq yo'lovchi tashishga mo'ljallangan samolyotlar ishlab chiqilgan, ularga 300-500 va undan ko'proq yo'lovchi sig'adi. Tezligi soatiga 2300-2500 km bo'lgan samolyotlar loyihalashtirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurazzakov, A. (2021). "Transport and logistics: their role in economic development". Tashkent: Economy of Uzbekistan.
2. Kadyrov, R. (2020). "New transport routes and their economic effects". Samarkand: Samarkand State University.
3. Tashkentov, M. (2022). "Transport infrastructure and its impact on the world economy". Bukhara: Bukhara State University.
4. Khudoyberganov, S. (2019). "Transport and trade: global trends". Tashkent: Science and technology.
5. Mirzaev, E. (2023). "Transport systems: innovations and development prospects". Andijan: Andijan State University.
6. Rahmonov, B. (2021). "The importance of transport routes in economic development". Fergana: Fergana State University.
7. Shokirov, D. (2022). "Transport and Logistics: Modern Approaches". Tashkent: National University of Uzbekistan.